

Abdujabbor OBIDOV

Nozikoy va Maymoq  
*Tendersie and the Bruin*



# Abdujabbor OBIDOV



UO'K 821.512.133-343.4  
KBK 84(50')6  
O-14

### Taqrizchilar:

**X. To'xtaboyev** – O'zbekiston xalq yozuvchisi, O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sohibi;

**D. Rajab** – filologiya fanlari nomzodi, bolalar shoiri.

### Obidov, Abdujabbor

O-14 Nozikoy va Maymoq [Matn]: ertak-qissa/A.Obidov – Toshkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2019. – 160 bet.  
ISBN 978-9943-5383-8-2

Ezgulik va yaxshilik inson qalbini xoh keksa, xoh yosh bola bo'lsin nurlantiradi. Hayotga qiziqish va muhabbat bilan qarashga o'rgatadi. «Nozikoy va Maymoq» aynan shu haqda. Tabiatga, flora va faunaga mehr berish, uni suyush, hayvonot dunyosini qadrlash ertak mazmunini kasb etadi. Ertak qahramoni Nozikoy aynan shunday go'zal xislatlarga ega. Kitobni o'qish jarayonida o'quvchi shu fikrga keladi deb umid qilamiz.

UO'K 821.512.133-343.4  
KBK 84(50')6

ISBN 978-9943-5383-8-2

© A. Obidov, 2019  
© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2019

**Abdujabbor OBIDOV**

# NOZIKOY VA MAYMOQ

Ertak-qissa


## TENDERSIE AND THE BRUIN

(fairy tale-story)


Maktabgacha ta'lim muassasalari kadrlarini malakasini  
oshirish instituti tomonidan tavsiya etilgan



Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent — 2019



**A**ytishlaricha, odam oyog'i yetmas tog'da, cho'qqiga yaqin yerlarni makon qilib, ota bilan qiz cho'ponlik qilarkan. Necha yillardan buyon ular suruvini\* ko'm-ko'k o'tlar o'sgan tog' yonbag'irlariga haydab borib, qo'y-echkilarini to'ygunicha o'tlatar ekanlar. Ammo bir kuni kimdir ularning qo'ylariga raxna sola boshlabdi. Cho'pon buning sababini topish uchun kechasi poylay boshlabdi. Bir kuni haybatli ayiq paydo bo'lib, suruvdan sovliqni olib, yelkasiga tashlab, tezda ko'zdan g'oyib bo'libdi. Cho'pon esa qo'rqqanidan kamonidan o'q uzishga ham ulgurmay qolibdi.




**T**hey say, close to the highest mountain peak, where human foot had not yet reached, there lived a father and a daughter, shepherds. For many years in a row, they drove herds to green pastures, located at the foot of the mountains, where sheep and goats were provided with full of juicy grass. But the dark days came for the shepherds, and then here and there an unknown beast carried their sheep away.

One night the shepherd waited for the beast — a thief. It was a huge Bruin. From fear, the

\* *Suruv* — qo'y-echki podasi.







Cho'pon o'ziga kelgach, suruvini qiziga qoldirib, is oladigan itini oldiga solib, ayiqni izlab yo'lga o'tlanibdi.

Qizining: «Erta saharlab borsangiz bo'lmaydimi?» degan savoliga boshini silkib:

— Hozir sovligni qoni tomib boradi, Olapar isni bexato olishiga imkon katta, — debdi.

Cho'pon oyog'iga po'stin boylab olganidan, to'vushi chiqmay qadam bosarmish. Jadal yurib, bir pastlab, bir tepaga tirmashib, kattagina g'or og'ziga yetibdi.

Qop-qorong'i kecha. Bir yog'i zulmat qoplagan dara, pastda irmoq, suv sharqirarmish. Bir tomoni quyuk archalar yastangan vodiy emish.



shepherd did not even have time to fire at it from his bow, and at that time the Bruin quietly threw a new victim — a lamb on its shoulders and disappeared. It moved so fast among the stones and blocks that you would be marveled.

When the shepherd came to himself, he entrusted the herd to his daughter, and he followed the Bruin's tracks, taking a sniffer-dog with him.

When asked by her daughter:

«Can't you get off early tomorrow morning?»

— Her father shook his head:

It's the time to take a trace. On the way, the fresh blood of the sheep will drip. This is a



G'or ichi qorong'i, hech nimani ko'rib bo'lmas zimiston ekan. Cho'pon bir ikki qadam qo'yib, suv shildirab oqayotganini eshitibdi-yu, «Ayi quruq joydan panoh topadi», degan gapni eslab, ortiga qaytibdi. G'ordan chiqib, uni aylanib o'tish uchun archazor tomonga yo'l olibdi.

Katta-kichik xarsang toshlarni bir aylanib, bir ustiga chiqib, ayiqning maskanini izlashda davom etibdi. Ne-ne mashaqqatlar bilan toshlarni bir-biriga ishqalanishidan, shaqir-shuqur tovushiga ham e'tibor bermay, yuqoriga ko'tarllarmish. Bir vaqt, o'ng tarafda turtib chiqqan qoya ostida ikkita qora ko'lanka ko'rinibdi. Ulardan biri qimirlaganidan cho'pon hushyor tortib, yelkasidan kamon-yoyni



great opportunity for Alapar (that's the name of the dog) to get unmistakably on the track.

The shepherd tied his sheepskin feet, so he thought there would be no sound of footsteps. He walked intensely, downhill and climbing rep reached a large cave.


All around the darkness is impenetrable. On the one hand, its dark gorge, below the stream and water beats a waterfall. And, on the other side, is a valley overgrown with thick fir trees.

It's dark inside the cave, even though the eyes have been forged.


After making two steps into the unknown, the shepherd heard the murmur of water, but







olib yerga qapishib yotib olibdi. Kechasi biroz shamol borligidan, odamning isi shundoq ayiqlarning dimog'iga urilarmish. Katta ayiq bu isni sezib cho'pon tomonga kela boshlabdi. Cho'pon ov qilishga mohir usta ekan. Avvaldan tayyorlab kelgan mash'ala yog'ochlarini yoqib, ular tomonga otibdi.



Buni ko'rgan ayiq to'xtab, orqaga chekinibdi. Cho'pon kichikroq ayiqni urg'ochisi deb o'ylab, qaysi biriga kamon o'qталishni bilmay hayron turganida, katta ayiq cho'ponga hamla qilibdi. Shunda, keskin harakat bilan yarim burllgan cho'pon kamon o'qini ayiqning peshonasiga mo'ljallab otibdi. Ayiq lo'killab chopganidan kamon o'qi bo'yniga



remembering the saying that the Bruins live in dry places, he went back.

Leaving the cave, he went to the spruce grove to get around it.

Bypassing large and small boulders, then, climbing them along the road, he continued to search for the Bruin's den. With difficulty he climbed up, ignoring the creak and rustle of stones under his feet. Suddenly two black shadows flashed under the sheer rock on the right. One of them moved. The shepherd, pricked up, took off his bow and arrows from his shoulders and lay down on the ground. They say that at night the wind blows away the







Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi  
<https://kitobxon.com/oz/asar/4150> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси  
<https://kitobxon.com/uz/asar/4150> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте  
<https://kitobxon.com/ru/asar/4150>